

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA TINISH BELGILARINING NOFAOLLIGI

Nazarova Nilufarxon Axmedovna

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti O'zbek tili,
pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida tinish belgilaridan foydalanmay ham mazmun anglashilishiga oid fikrlar qisman tahlil qilingan. Maqola davomida Faxriyor, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlarning she'riy asarlarida tinish belgilari qo'llanilishi tahlil qilingan. Tinish belgilari yozma nutqning ajralmas qismi ekanligi, tinish belgilari zamonaviy she'riyat uchun zaruriy unsur bo'lmasa-da, ularsiz gaplar mazmuni, sintaktik butunliklar mukammal bo'lmasligi xususida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, tinish belgilari, she'riy tizim, funktsionallik, zamonaviy poeziya

БЕЗДЕЙСТВИЕ ПУНКТУАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ

Назарова Нилуфархон Ахмедовна

*Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий, кафедра
узбекского языка, педагогики и физической культуры*

Аннотация: В данной статье частично анализируются представления о понимании смысла в узбекской поэзии без использования знаков препинания. В статье анализируется использование знаков препинания в поэтических произведениях таких авторов, как Фахриёр и Улугбек Хамдам. Также обсуждается тот факт, что знаки препинания являются неотъемлемой частью письменной речи, и что хотя знаки препинания не являются

необходимым элементом для современной поэзии, содержание предложений и синтаксических целых не было бы полным без них.

Ключевые слова: пунктуация, знаки препинания, поэтическая система, функциональность, современная поэзия

THE INACTIVITY OF PUNCTUATION IN MODERN POETRY

Nazarova Nilufarkhon Akhmedovna

*Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Uzbek Language, Pedagogy
and Physical Culture Department Teacher*

Abstract: *This article partially analyzes the ideas about the understanding of the meaning in Uzbek poetry without the use of punctuation marks. The article analyzes the use of punctuation marks in the poetic works of such authors as Fakhriyor and Ulugbek Hamdam. It also discusses the fact that punctuation marks are an integral part of written speech, and that although punctuation marks are not a necessary element for modern poetry, the content of sentences and syntactic wholes would not be complete without them.*

Keywords: *punctuation, punctuation marks, poetic system, functionality, modern poetry*

Zamonaviylashish “modern”lik tushunchasi hozir har bir sohani egallab, har jabhada sezilarli iz qoldirmoqda. Zamonaviy she’riyat ham globallashgan dunyoga munosib ravishda yangilanmoqda. Nisbatan qadim tarixga ega bo’lmagan, grammatikaning ajralmas qismi hisoblangan tinish belgilari ham qo’llanilishi jihatidan zamonaviylashgan she’riy tizimga mutanosib ravishda o’zgarishlarga yuz tutmoqda. Xususan, tinish belgilari har qanday nutq ko’rinishini tartibga solib, tushunilish darajasini osonlashtirib tursa-da, ayrim adiblar tomonida qo’llanilishi shart emasdek munosabat bildirilmoqda. Ularni ishlatmay ham muallif o’z fikrini to’liq bayon eta olishi targ’ib qilinmoqda. Masalan, Faxriyorning “Izlam” she’riy

to‘plamiga kiritilgan qator poeziya namunalarini tinish belgilarisiz matnlar tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda matnlardagi barcha satrlar kichik haflar bilan boshlanadi.

TINISH BELGILARI

*“Nuqta tinish belgimas siz o‘ylagancha, shoir aytganiday o‘lim ham emas, u
arqondir bir uchidan ko‘rinayotgan tarang tortilgan arqon.*

*Undov esa dor ustida langarsiz tomosha ko‘rsatayotgan dorboz, u o‘ziga shu qadar
ishonadiki muvozanat saqlamoq uchun qo‘llarin yozmoqni ep ko‘rmas hatto”*

Ushbu she‘riy parchaning o‘zida ham tinish belgilari kam va grammatik me‘yorga to‘liq mos bo‘lmagan tarzda qo‘llanilayapti. She‘riy parcha mazmunini o‘zi ham tinish belgilariga boshqacha uslubda baho berish va ularni ajoyib qiyoslashga yo‘g‘rilgan. O‘xshatish va qochirimlar o‘zgacha, qiziq. Demak, she‘rda tinish belgilaridan to‘la-to‘kis foydalanmay ham shoir ijodiy maqsadini, mazmunni bera olgan. Asli, 1-2-misralarda bir nechta vergul va nuqta qo‘llanilishi, satrlar ko‘proq misralanishi kerak edi. Masalan:

Nuqta tinish belgimas, siz o‘ylagancha,
Shoir aytganiday, o‘lim ham emas.
U arqondir, bir uchidan ko‘rinayotgan,
Tarang tortilgan arqon.

Asarda chuqur falsafiy fikrlar mavjud, haqiqatan ham, tinish belgilarini hozirgi zamon grammatik talablariga moslamasa ham mazmuni bera olgan shoir. Lekin buning uchun ijodkorda mahorat, kitobxonda malaka, zehn, bilim bo‘lishi lozim. Tinish belgilarisiz ham matnni idrok etish ancha murakkab. Tinish belgilari, shubhasiz, bizga katta ko‘makchi. Ohangdorlik ortadi, tushunish osonlashadi. To‘xtam va misralanishlar odatiy bo‘lsa matn mazmunini tez va osonlar tushunish mumkin. Yuqoridagi shoir qolipida esa she‘rni bir marta o‘qishda anglash qiyin. Muallif aynan nima haqida fikr yuritayotganini, nima demoqchiligini bir necha marta o‘qigach, bo‘lib-bo‘lib o‘qigach anglay olinadi.

“ u o‘ziga shu qadar ishonadiki “ shu o‘rinda ham -ki yuklamasidan keyin ham vergul (,) qo‘yilishi kerak edi, xullas ushbu she‘rning har bir misrasiga muallif tinish

belgilaridan tashqari yana bir necha tinish belgilarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lardi. Lekin muallif punktuatsion belgilarsiz ham o'z badiiy g'oyasini ifodalay olgan. Modal so'zlar, ajratilgan bo'laklar, kirishi birikmalaridan oldin va keyin ham tinish belgilari ishlatilishi gap shakl va mazmunini to'g'ri moslashtiradi.

Ulug'bek Hamdamning "Atirgul" to'plamida ham ko'plab punktuatsiyasiz matnlarini uchratishimiz mumkin. Masalan:

Pokizalik orzusi

*samolarda aylanib uchgan
kirsiz-kirsiz havoni quchgan
so'ngra ona zamin bag'riga
kapalakdek ohista tushgan
qor kabi
shu qor parchasining kechmishi kabi
o'tsa edi qismatimiz deya
niyat qilmoqlik uchun
Muhammadning qalbidek toza
yurak zarur ummatiga ham*

Ushbu she'riy matnda hech bir tinish belgi ishlatilmagan. Shu sabab gap oxirini, yakun yoki boshlanishni anglab, belgilab bo'lmaydi. Misralar boshi ham, gaplar boshi ham bosh harflarsiz. Faqat atoqli otgina bosh harfda. Asli grammatik me'yor talabida 1-misra gap boshi bosh harf, misra oxiri uyushiq bo'laklar hisobiga vergul, 2-misra oxirida ham vergul qo'yilishi zarur. Bundan tashqari ushbu she'riy parchada ikki nuqta, tire ham qo'llash mumkin edi. Band, she'r yakuni esa, albatta, nuqtani talab etadi.

Bizningcha,

*Samolarda aylanib uchgan,
Kirsiz-kirsiz havoni quchgan,
So'ngra ona zamin bag'riga
Kapakdek ohista tushgan - qor kabi.*

Shu qor parchasining kechmishi kabi
o'tsa edi qismatimiz,- deya, Niyat qilmoqlik uchun
Muhammadning qalbidek - toza
Yurak zarur ummatiga ham.

Demak, tinish belgilarining ishlatilishi she'r mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Ohangdorlik va to'xtam fikr aniqligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, poetik matnlardagi ma'no-mazmun, shakl oddiy harflardan tortib, to muallifning o'ziga xos tinish belgilarini qo'llashigacha bo'lgan grafik birliklar yig'indisidir. Bunda matnlarning rang-barangligi va betakrorligi ortadi. Bunday shakl o'zgachaligi Faxriyor, Ulug'bek Hamdamdan tashqari Dilshod Rajab, Ikrom Otamurod, Abdurahmon Akbarlarning ijodlarida ham ko'p uchraydi. Ularning vizuallikka erishish usullari o'ziga xos bo'lib, she'riy matnlarning bir xilligidan zerikkan kitobxonlar uchun yangilikdir. Ayniqsa, gadjetlarga mukkasidan ketgan qatlam vakillari uchun ham yangilik, o'zgachalik. To'g'ri, bu kabi yuzaki kitobxonlar mazmundan avval shaklga e'tibor qaratadi, shu bois shakldagi o'zgarish, yangilanish biroz bo'lasada ularning e'tiborini jalb etadi. Demak, tinish belgilarisiz she'riyat tushunish va anglashda murakkablik keltirsa-da, shakldagi o'zgarish qisman qiziqish uyg'otishga asos bo'lar ekan. Tinish belgilarisiz ham muallif o'z fikrini bera oladi, valekin buning uchun muallifdan ustalik, mahorat, kitobxondan zehn va bilim talab etiladi. Vaholanki, she'riyatda ham boshqa badiiy tur va janrlar kabi kitobxon saviyasini hisobga olib ish ko'rilishi lozim. Hozirgi zamon adabiyotida tinish belgilarisiz, kichik harflar bilan istalgancha misralanish, bandlardagi tartibsizliklarga yo'l qo'yilishi urfga kirmoqda. Bu degani jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar til va adabiyotda akslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2015.
2. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: "Fan", 1990
3. Ulug'bek Hamdam. ATIRGUL. Toshkent-2005

4. BADIY USLUBDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANILISHI *Nazarova Nilufarxon Axmedovna* “GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman Andijon-2024